

DAVLAT MOLIYA TIZIMIDA MAHALLIY EHTIYOJNI QOPLASH USULLARI SHARHI

Odina Shodmonova

Guliston davlat universiteti Tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8073411>

Annotatsiya. Ushbu maqolada budget tizimining qoplab berish siyosati, ya'ni dotatsiya, subsidiya, subvensiya tushunchalarining ahamiyati muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Dotatsiya, subsidiya, subvensiya, budget, iqtisodiyot.

KIRISH

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budget intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budget tizimining shaffofligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat budjetini o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy yetish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash choratadbirlari to'g'risida" 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qaror qilindi va ushbu qaror bilan 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi qabul qilindi.

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasida davlat budjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash masalasiga alohida ye'tibor qaratildi. Davlat moliyasini boshqarishning yanada oqilona va samarali tizimini ta'minlash maqsadida budget tizimining budgetlari o'rtasida ulardan har birining xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarur bo'lib, budgetlararo transfertlar miqdorini hisoblash va ajratishning yagona va shaffof uslubiyati joriy yetiladi.

ASOSIY QISM

Mahalliy budjetning daromad qismi odatda mahalliy ehtiyojni to'la qondirishga qodir emas. Chunki ularning faoliyati nafaqat mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan ishlar, shu bilan birga, umumdavlat dasturlarini bajarish bilan ham bog'liq. Shu sababli davlat markaziy budjetdan ularga subsidiya va subvensiya ko'rinishda moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bu yordam mahalliy budjet daromad qismining 20 foizidan 40 foizigacha bo'lishi mumkin.

Subsidiya ham, subvensiya ham mahalliy budjetga davlat tomonidan dotatsiya ko'rinishidagi moliyaviy yordamdir.

Dotatsiya - bu iqtisodiyotga budget orqali ta'sir etish vositalaridan biri bo'lib, qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratishdir. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o'z daromadi bilan xarajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi.

Subsidiya - bu umumiy dotatsiya bo'lib u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida bo'lib, markaz unga aralashmaydi.

Subvensiya - bu maqsadli dotatsiya bo'lib, u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni mo'ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi. Agar subvensiya boshqa maqsadda ishlatilgan bo'lsa, u qaytarib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 134-moddasida budjetlararo transfertlarning shakllari keltirilgan bo'lib, ular subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, budjet ssudasi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi.

Budjetlararo transfertlarning turlari [2]

Subvensiyalar	O'tkazib beriladigan daromadlar	Dotatsiya	Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar	Transfertlar	
				Maqsadli ijtimoiy transfertlar	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va	tegishli ma'muriy-hududiy birliklar hududida	yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga	Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida	yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta'lim	qaytarilmaslik sharti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi

Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotgan da belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.	shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma'muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo'lsa, o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga o'tkazib berilishi mumkin.	dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.	byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir.	va tibbiyot muassasalarining ish haqi va ijtimoiy soliq bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi.	byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash uchun beriladi.
--	--	--	--	--	---

XULOSA VA MUNOZARA

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasida davlat budjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash masalasiga alohida ye'tibor qaratildi. Davlat moliyasini boshqarishning yanada oqilona va samarali tizimini ta'minlash maqsadida budjet tizimining budjetlari o'rtasida ulardan har birining xarajatlar bo'yicha majburiyatlarini aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarur bo'lib, budjetlararo transfertlar miqdorini hisoblash va ajratishning yagona va shaffof uslubiyati joriy yetiladi.

References:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy takhlil, katiy tartib-intizom va shahsiy zhavobgarlik - har bir boshqaruv faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak. 2016-yilda Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mulzhallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi kengashi, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104b.

2. Morozova E.A. Rossiya mintaqalarida munitsipal islohot va byudjetlararo munosabatlar // Iqtisodiyot fanlari. 2018 yil. № 14(39);
3. Lyubimtsev Yu.N. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari // The Economist. 2010. No 6. S. 21 - 33.;
4. Bezhaev O. G. Byudjetlararo munosabatlar. Islohotlar nazariyasi va amaliyoti. M., 2001, b. 16; Krokhina Yu.A. Byudjet huquqi va Rossiya federalizmi. M., 2002, S. 221.;
5. Bogov X. M. Byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlar // Moliya va kredit, 28 (268) - 2017.;
1. 6 Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / - T.: "Iktisod-moliya" 2019. - 800 b.
6. Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va davlatliberallashtirishda byudjeti daromadlari manbalarini ishlab chiqarish yunalishlari.-T.: TDIU, 2017. - b.27-28.,



INNOVATIVE
ACADEMY